

“TASDIQLAYMAN”

**“O‘ztransgaz” AJ boshqaruv
raisi o‘rinbosari v.v.b.**



O‘.Nuriddinov

**“O‘ztransgaz” AJda 2022 yilda monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi
HISOBOTI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy yetish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 114-sonli qaroriga asosan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyatida joriy etilgan monopoliyaga qarshi komplaens tizimi monitoringini va faoliyatini ta‘minlash uchun Jamiyatning komplaens-nazorati bo‘limiga yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6019-sonli Farmoniga asosan “O‘ztransgaz” AJ boshqaruv raisining 2020 yil 30 sentyabr kuni 127-sonli buyrug‘i ishlab chiqildi.

Shuningdek, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O‘RQ-684-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-sonli qaroriga asosan Jamiyat boshqaruv raisining 2022 yil 4 aprel kuni 40-sonli buyrug‘i ishlab chiqildi.

Bundan tashqari xaridlar jarayonida noqonuniy xolatlarni oldini olish va shaffoflikni ta‘minlash maqsadida Jamiyat boshqaruv raisining 2021 yil 26 oktyabr kungi 173-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘ztransgaz” AJ v tashkiliy tuzilmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma ishlab chiqildi.

“O‘ztransgaz” AJning axborot-kommunikatsiya tizimlarini boshqarish departamentining “O‘ztransgaz” AJ, “Naqilgazmaxsusqurilish” AJ, “Urgenchtransgaz” DUK va “Transgazinjinirring” MChJga markazlashtirilgan veb-saytini yaratish bo‘yicha 2022 yil 24 martdagi VZ-30-son rejadan tashqari buyurtmasi xaridi yuzasidan xaridlar va kooperatsion aloqalar departamenti tomonidan “<https://etender.uzex.uz>” maxsus axborot portalida, 22120012148261-sonli lot bilan e‘lon joylashtirilgan.

Eʻlon natijalariga koʻra 4 nafar ishtirokchilar yaʻni “INTEGRATE IT” MChJ, “BAZIS DIGITAL” MChJ, “NAPA AUTOMOTIVE” MChJ, “IT WORKS” MChJ takliflari “https://etender.uzex.uz” saytida elektron shaklda qabul qilingan va “BAZIS DIGITAL” MChJ gʻolib “INTEGRATE IT” MChJ esa zaxira gʻolibligi yuzasidan maxsus axborot portali operatori tomonidan 2022 yil 21 sentyabrda bayonnoma elektron shakllangan.

Oʻzbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari toʻgʻrisida”gi OʻRQ-684-sonli Qonunining 42-moddasi 7 bandiga asosan “BAZIS DIGITAL” MChJ va “INTEGRATE IT” MChJ affillangan ishtirokchilar ekanligi aniqlangan va xarid komissiyasining 2022 yil 22 sentyabrda 16-22/09-2 bayonnoma rasmiylashtirilib maxsus axborot portali operatori tomonidan shakllangan elektron bayonnoma natijalari bekor qilingan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyun kungi “Tabiiy gaz bozorini isloh qilishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-280-sonli qaroriga asosan “Oʻztransgaz” AJning tabiiy gazni xarid qilish va sotish shartnomalari hamda bitimlari, shu jumladan mahsulot taqsimotiga oid bitimlar boʻyicha huquq va majburiyatlari 2022 yil 1 avgustdan boshlab “UzGasTrade” AJ zimmasiga oʻtqazilgan.

“Oʻztransgaz” AJ hamda unga tegishli korxonalar va tashkilotlarining mansabdor shaxslari tomonidan yoʻl qoʻyilayotgan yoki yoʻl qoʻyilgan raqobat toʻgʻrisidagi qonunchilik hujjatlari buzilish yehimoli paydo boʻlganda Jamiyatning rasmiy veb-saytida “Raqobat cheklanishi toʻgʻrisida xabar ber” interaktiv tugmacha va (+71) 202-10-60 (ichki 398) ishonch telefoni yaratildi.

Komplaens-nazorati boʻlimida monopoliyaga qarshi komplaens tizimi monitoringini va faoliyatini taʻminlash uchun elektron pochta manzili: z.sirojiddinov@utg.uz.

“Oʻztransgaz” AJ Komplaens nazorat

boʻlimi bosh mutaxassisi

26-dekabr 2022 yil.



Z.Sirojiddinov

